

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



«Umumtexnika fanlari» kafedrası

«Kichik biznesni boshqarish» fanidan

K U R S I S H I

**Mavzu: O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni
rivojlantirishning aloxidalik tomonlari.**

Bajardi: «Texnika» fakulteti «Biznesni bosqarish» yonalishi 2 – kurs
talabasi O. Sodiqov.

Tekshirdi: X. Aybeshov

ANDIJON – 2013 yil.

Mavzu: O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aloxidalik tomonlari.

Reja:

Kirish

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni.

2. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos aloxidalik xususiyatlari.

3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi.

SHu jixatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga aloxida e'tibor berilmoqda. CHunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

«...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotidagi ulushi hozirgi vaqtda – shunga aloxida e'tibor berishingizni so'rayman – 54 foizni tashkil etishining o'zi, o'ylaymanki, ko'p narsani anglatadi» - deb ta'kidlagan YUrtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimovning Vazirlar Maxkamasining majlisidagi nutqida fikrlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi xissasi beqiyos ekanligini ifodalaydi.

YUqoridagi bildirilgan fikr va muloxazalardan ko'rinib turibdiki, tanlangan «O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aloxidalik tomonlari» kurs ishi mavzusi bugungi kunda dolzarb va axamiyatlidir.

Kurs ishini bajarishdan asosiy maqsad mavzu yuzasidan olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va tajribalarni yanada mustaxkamlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish yo'lida biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni bajarishni belgilab oldik:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni va axamiyatini o'rganish;
- O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos aloxidalik xususiyatlarini o'rganish;
- O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish.

Mazkur kurs ishini bajarishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutiçiyasi,

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qarorlari, Prezidentimiz Farmon va asarlari, boshqa me'yoriy xujjatlar, mavzu yuzasida ish olib borgan iqtisodchi – olimlarning ilmiy ishlari, xamda internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni.

Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani soxaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez xamda tejimli tarzda xal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darxol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Xozirgi paytda ushbu soxa nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nixoyatda muxim bo'lgan bandlik va axoli daromadlarini oshirish masalalarini xal etishda xam etakchi o'rin tutmoqda.


Kichik biznes soxasining iqtisodiyotdagi axamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muxitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun maxsulot va xizmatlar etkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari xajmining o'sishini ta'minlash, axoli daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, axolining daromadlari va farovonligini oshirishning muxim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi xamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki

maxsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000 yilda yalpi ichki maxsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009 yilda 50,1 foizni, 2010 yilda 52,5 foizni, 2011 yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000 yilga nisbatan 23 foizga o'sdi(1-rasm).


Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soxa uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari etarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol' o'ynayotganligi xisoblanadi. Xususan, 2010 yilda kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirilgan bo'lsa, 2011yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki maxsulotdagi ulushi.

Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi.


2012 yilda soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 6 foizdan 5 foizga tushirilishi rejalashtirilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari.

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1996-2012 yillar mobaynida kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 5 foizga yoki 7,6 marta qisqardi.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xam aloxida e'tibor berilmoqda. Xususan,



3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar miqdori.

2010 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2690,2 mlrd.so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2011 yilda esa bu ko'rsatkich 4041 mlrd. so'mni tashkil etdi(3-rasm).

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2001-2011 yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasiga yo'naltirilgan kreditlar miqdori qariyb 24 martaga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bank tizimi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash xajmini 2011-2015 yillarda 2,7 baravarga oshirish;
- xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;
- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq xamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek axoli zich yashovchi xududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun safarbar etish;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash xajmini oshirib borish;
- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan maxsulotlarni xarid qilish uchun axoliga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va boshqalar.

Mamlakatimizda ish bilan band axolining 74 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasida bandligi bu soxaga e'tiborni yanada

kuchaytirishni, jumladan tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratishni ko'paytirishni va shu asosida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga zamin yaratish zarurligini taqozo etadi.

Bu borada 2011 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga jami 4 trln. 41 mlrd. so'm (o'tgan yilga nisbatan 150,2 foizga ko'p) miqdorida kredit, shu jumladan 752 mlrd. so'm (o'tgan yilga nisbatan 155 foizga ko'p) mikrokreditlar ajratilib, ushbu mablag'lar xisobiga xududlarda 291126 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

SHu bilan birga, "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish xamda respublika qishloqlarida mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish maqsadlari uchun 159,7 mlrd. so'm miqdoridagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatilib, 104500 ta yangi ish o'ri yaratildi.

Albatta, mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yanada yangi zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish takomillashtirilib borilishi talab etiladi.

SHu munosabat bilan 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasi pasaytirildi. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlik sub'ektlariga ajratiladigan kreditlarning foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, natijada ushbu sub'ektlar tomonidan bank kreditlaridan foydalanish orqali o'z bizneslarini rivojlantirishga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratdi.

2012 yil mamlakatimizda "Mustaxkam oila yili", deb e'lon qilinishi munosabati bilan, axoli bandligini ta'minlash va yangi ish joylarni yaratish maqsadida bank tizimida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar, shu jumladan mikrokreditlar ajratish mexanizmlari takomillashtiriladi va soddalashtiriladi. Bunda, oilaviy biznes va xunarmandchilikni rivojlantirish,

boshlang'ich kapitalni shakllantirish xamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida uzoq va o'rta muddatli kreditlarni ajratish mexanizmlari qayta ko'rib chiqilib, xozirgi davr talablariga moslashtiriladi;

ikkinchidan, tijorat banklari tomonidan 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari xisobidan jami 4 trln. 377 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratiladi, shundan mikrokreditlar xajmi 843 mlrd. so'mni tashkil etadi. Ushbu kreditlar birinchi navbatda boshlang'ich kapitalni to'ldirish uchun xamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash maqsadida o'rta va uzoq muddatlarga ajratiladi;

uchinchidan, 2012 yilda tijorat banklari tomonidan oilaviy biznes va xunarmandchilikni rivojlantirish uchun kredit mablag'larini ajratilishiga aloxida e'tibor qaratiladi. Ushbu maqsadlar uchun banklar tomonidan joriy yilda 60 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltiriladi;

to'rtinchidan, tijorat banklari tomonidan 2012 yilda yosh oilalarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida ularga mikrokreditlar ajratish uchun jami 243 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratiladi;

beshinchidan, tijorat banklari tomonidan 2012 yilda ajratiladigan kredit mablag'larining 28,3 mlrd. so'mi kasb-xunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq loyixalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi;

oltinchidan, tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 30,0 mlrd. so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bunda asosiy e'tibor ustuvor ravishda uzoq va borish qiyin, shuningdek ortiqcha mexnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaxarlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga qaratiladi;


ettinchidan, tijorat banklari tomonidan 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish va servis soxasini rivojlantirish uchun jami 336 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratiladi.

Muxtasar qilib aytganda, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka, xususan ularning modernizatsiyalash va texnologik yangilanishiga moliyaviy ko'mak berish, zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va axolining bandligi ta'minlanishida, ichki iste'mol tovarlari ishlab chiqarish xajmlarining ko'payishiga va minglab oilalar daromadlari ortishida muxim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi Xukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga


ko'ra xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdori 2011 yilda **4-rasm. 2011-2015 yillarda**



xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kreditlar miqdori.

75 millionAQSH dollarini, 2015 yilga borib esa 155 millionAQSH dollarini tashkil etishi mo'ljallangan (4-rasm).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini xam asta-sekin kengayib bormoqda. Uning mamlakatimiz eksport xajmidagi ulushi 2011 yilda 18,8 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 8,6 foizga ko'pdir (5-rasm). Kichik biznes sub'ektlarining asosiy eksport maxsulotlarini qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish maxsulotlari, xalq amaliy san'ati buyumlari tashkil etadi.



5-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdagi ulushi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi PQ – 1501 sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlash xajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2011 yil 19 martdagi 79-sonli “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi PF-4192-sonli “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada

rivojlantirish uchun qulash ishbilarmonlik muxitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi PQ – 1501 sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlash xajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” gi Qaroriga binoan tadbirkorlarga quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi resurslari xisobidan kredit berishdan oladigan daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod qilindi;

- ustuvor ravishda olis va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mexnat resurslari ortiqcha bo'lgan tuman va shaxarlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyixalariga ajratiladi;

- tijorat banklariga kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni xisobga olish xuquqi berildi;

- jamg'arma xisobidan kreditlar eng kam oylik ish xaqining ikki ming baravaridan ortiq bo'lmagan summada ajratilishi belgilandi;

- jamg'arma mablag'lari xisobidan kreditlar maxsulot etishtirish (tamakichilik va alkogolli maxsulot ishlab chiqarishdan tashqari), ishlarni bajarish, xizmatlar (savdo soxasi va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan loyixalarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muxitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4354-sonli Farmoniga muvofiq tadbirkorlarga quyidagi imtiyozlar berildi:

- 2011 yil 1 sentyabrdan kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada xisobraqami ochganlik uchun to'lov undirish bekor qilindi;

-tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish xaqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati uch ish kunidan oshmaydigan muddat bilan cheklandi.

Xulosa qilib aytganda, 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xamda yanada rivojlanishini ta'minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining samarali faoliyatiga xalal berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- xududdagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi xamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muxit yaratish borasida xar bir xududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan xolda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi xar qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

- xududlardagi kichik biznes sub'ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish xamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

- maxallalarda oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash, shu asosda oilaviy biznesni tashkil etishning namunaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;

- xududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyat yo'nalishlari jixatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat soxasida, yuqori texnologiyalarni talab

etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

- xududlardagi eksportga maxsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat soxasidagi ishtirokini kengaytirish;

xududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini xar tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularni ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustaxkam iqtisodiy soxaga aylanishini ta'minlash lozim.

2. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos aloxidalik xususiyatlari.

Garchan iqtisodiyot fanida tadbirkorlik xaqidagi ma'lumotlar XVIII asrda R.Kantil'on, A.Tyuorgo, F.Kene va J.Bosey asarlarida birinchi bor talqin qilingan bo'lsa-da, O'zbekiston tadbirkorlik soxasida o'ziga xos tarixiy tajribaga ega. Buni yaqqol misol tariqasida Temur tuzuklarida "Buyuk Ipak Yo'li"ni bizning xududdan o'tishini misol qilib olishimiz mumkin.

I.Karimov "Biz uchun ustuvor bo'lib qolayotgan eng muxim vazifalardan yana biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasidir" - deb ta'kidlashi bejiz emas (I.Karimov "Erishgan marralarimizni mustaxkamlab, islohatlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz" Xalq so'zi, 10 fevral 2004 yil).

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qulay sharoitlar mavjud.

Ularga:

- O'zbeklarda yangi tadbirkorlik faoliyatini joriy etishga moyillikning yuqoriligi.
- Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi respublika ta'lim tizimiga mos kelishi.
- O'zbek xalqining daromadidan jamg'armaga ajratilgan ulushining yuqoriligi.
- O'zbekistonning jaxon mamlakatlari bilan mustaxkam aloqasini mavjudligi.
- Mexnatga xaq to'lash va axoli sotib olish qobiliyatining nisbatan pastligi.

- Qulay siyosiy sharoitning mavjudligi.

Biz O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratay ekanmiz shu orqali uchta muxim masalani echishni ko'zda tutamiz.

Birinchi masala - yaqin besh – o'n yil ichida ushbu soxa yalpi ichki maxsulotning 50 – 60 foizini ishlab chiqarishga erishish.

Ikkinchi masala – bu soxani rivojlantirish axolini ish bilan ta'minlash va uning daromadlari o'sishining eng muxim manbalaridan biriga aylanishi lozim.

Doimiy diqqat markazimizda turish kerak bo'lgan uchinchi masala mamlakatimizdagi siyosiy – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori bo'lmish kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iborat (I.Karimov "Erishgan marralarimizni mustaxkamlab, isloxotlar yo'lidan izchil borish – bosh yo'limiz" Xalq so'zi 10 fevral 2004 yil).

Bugungi kunda respublikamizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri - axoli bandligini oshirish, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli axolining ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning axoli bandligini ta'minlashdagi rolga aloxida e'tibor berib, "Xisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali axoli bandligini ta'minlash masalasini xal qilish xam e'tiborimiz markazida bo'ldi. Xududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi. Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferenuiyalar berish, 28 foizdan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil

etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish xisobidan yaratildi.”¹, - deb aloxida ta’kidladi.

3. O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mexnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog’liqdir. Bu xolat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag’batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida xam o’zgarishlar yuzaga keladi. Bu xolat xam kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro’y beradi.

Umumiy sanoat maxsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o’zgarishlar sanoat soxasiga talab natijasida sodir bo’ladi, shuningdek qishloq xo’jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarning rivojlanish xisobiga bu soxa yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to’liq muvofiqlashuvi natijasida bu soxada ko’rsatkich ulushi pasayishi sodir bo’ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib xayot barpo etish, oldimizda turgan murakkab va mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday xal qiluvchi o’rin va ta’sirga ega bo’lib borayotganiga bugun amaliy xayotimizda xar qadamda guvox bo’lmoqdamiz. Va bu soxa ertangi kunimiz, istiqbolimizning xaqiqatan xam mustaxkam poydevoriga aylanib, yanada rivojlanib borishi aniq va muqarrardir.

¹ 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalashlarga bag’ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma’ruzasi. G`G` Xalq so’zi, 2012 yil 20 yanvar, №14 (5434)

Xududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, engil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor maxsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan soxalarida kichik biznesning o'рни va ulushi etarli darajada emas. Vaxolanki barcha soxada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa, ijobiy natijalarga erishamiz.

1-jadval

Respublika YAIMda xududlardagi kichik korxonalarning yalpi xududiy maxsulotdagi ulushining istiqbolda o'sib borishi (foiz xisobida)*

Respublika xududlari	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi
O'zbekiston Respublikasi	31,0	38,2	52,1	66,1	213,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	48,9	57,9	66,9	248,7
viloyatlar					
Andijon	32,9	38,7	49,9	61,1	185,7
Buxoro	33,0	44,4	51,1	57,8	175,2
Jizzax	37,1	64,4	73,0	79,8	215,1
Qashqadaryo	25,8	38,4	45,8	58,4	226,4
Navoi	21,5	20,9	33,5	46,1	214,4
Namangan	33,4	51,4	75,4	81,4	243,7
Samarqand	44,3	54,5	68,3	78,9	178,1
Surxondaryo	39,1	45,9	64,8	81,7	208,9
Sirdaryo	38,9	58,8	72,5	80,6	207,2
Toshkent	34,0	36,3	45,6	54,9	161,5
Farg'ona	32,0	43,9	64,7	82,3	257,2
Xorazm	34,2	54,2	78,3	81,9	239,5
Toshkent sh.	41,5	54,3	70,2	79,1	190,6

*O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi asosida xisoblandi.

Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga

ta'minlash mumkin. Bizning xisoblarimizga ko'ra, 2015 yilga borib, respublika bo'yicha kichik biznesning ishlab chiqarilgan YAIM xajmidagi ulushini 61,1 foizga etkazish, kichik tadbirkorlik korxonalarining yillik maxsulot ishlab chiqarishining o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan xolatdagina amalga oshadi.

Buning uchun xududlardagi kichik tadbirkorlik korxonalarning respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan YAIM dagi ulushi istiqbolda qo'yidagi xolatda o'sib borishiga erishish zarur (1-jadval).

2-jadval

Istiqbolda xududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonalari tomonidan maxsulot ishlab chiqarishning o'sishi (mln. so'm xisobida)

Xududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 y.da 2000 y.ga nisbatan o'sishi foiz
O'zbekiston Respublikasi	892573,0	956838,2	1089938,7	1223039,2	137,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18786,6	22919,6	24982,3	27045	143,9
viloyatlar					
Andijon	70178,8	74249,1	82564,9	90880,7	129,5
Buxoro	46619,4	51934,0	55413,5	58893,1	126,3
Jizzax	31281,6	39821,3	43245,9	46670,5	149,2
Qashqadaryo	61485,8	69233,0	74356,2	79479,4	129,3
Namangan	50919,4	60084,8	74505,1	88925,4	174,6
Samarqand	67851,2	74772,0	85090,5	95409,0	140,6
Surxondaryo	82241,4	87833,5	104434,0	121034,5	147,2
Sirdaryo	34155,4	40952,3	46562,7	52173,1	152,8
Toshkent	110782,4	112665,7	123143,6	133621,5	120,6
Farg'ona	104838,6	117314,3	141715,6	166116,9	158,5
Xorazm	36708,7	44050,4	54666,5	65282,6	177,8
Toshkent sh.	219770,8	247901,4	287813,5	327426,6	148,9
Navoiy	24940,4	25065,1	29100,5	33135,9	132,9

**O'zbekiston statistikasi axborotnomasi asosida xisoblandi.*

Albatta bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda, masalan AQSH da 75-82 foiz, Yaponiyada 81 foizni, Italiyada 74 foizni tashkil etadi. Respublikamiz kichik

biznesning bunday ko'rsatkichlarga erishishi tadbirkorlik faolligi orqali amalga oshadi.

Istiqbolda kutiladigan natijalar asosan kichik tadbirkorlikning faol rivojlanishi evaziga ro'y beradi. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqariladigan maxsulot miqdorining o'sish dinamikasini ta'minlaydi(2-jadval).

Xududlar bo'yicha maxsulot ishlab chiqarish xajmining istiqbolda o'sib borish dinamikasini korxonalar miqdorining o'sib borish xolati bo'yicha taxlil etsak, bu xolat qo'shimcha yangi kichik korxonalarning tashkil etilishi xisobiga amalga oshadi.

Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan xududlarda yalpi xududiy maxsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi ta'minlanadi. Jumladan, kichik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga istiqbolda ko'zlangan natijalarga erishish ta'minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga xam bog'liq ekanligi shubxasizdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan mamlakatimizda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita xal qilishga erishamiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik axoli bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muxim soxaga aylanadi.

Xulosa va takliflar

Biz «O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aloxidalik tomonlari» mavzusida kurs ishi bajarish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi;
- hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga aloxida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda;
- kichik biznes soxasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muxitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun maxsulot va xizmatlar etkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, axoli daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi;
- O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qulay sharoitlar mavjud.

Ularga:

- O'zbeklarda yangi tadbirkorlik faoliyatini joriy etishga moyillikning yuqoriligi.
- Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi respublika ta'lim tizimiga mos kelishi.
- O'zbek xalqining daromadidan jamg'armaga ajratilgan ulushining yuqoriligi.
- O'zbekistonning jaxon mamlakatlari bilan mustaxkam aloqasini mavjudligi.
- Mexnatga xaq to'lash va axoli sotib olish qobiliyatining nisbatan pastligi.
- Qulay siyosiy sharoitning mavjudligi.

YUqoridagi fikr va muloxazalar asosida shunday umumiy xulosaga kelishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalangan xolda, milliy va xorijiy innova^uion, raqobatbardosh texnika – texnologiyalarni joriy etishga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini muntazam rivojlantirib, axoli turmush farovonligini sistemali yuksalishiga erishmog’imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, "O'zbekiston", 1998 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, "Adolat" nashriyoti. 1992 yil.
4. Karimov. I.A. "O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida". Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil.
5. Karimov. I.A. "O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari". Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
6. Karimov. I.A. "Ozod el obod vatan, farovon xayot-pirovard maqsadimiz" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning ikkinchi chakiriq birinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruza "Xalq so'zi" gazetasi, 2000 yil.
7. Karimov. I.A. "Halollik, fidoiylilik, faoliyatimizning asosiy mezon", Toshkent, "O'zbekiston", 1994.
8. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent, "O'zbekiston". 2005 y.
9. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil, 14 iyun'.
10. "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil, 14 iyun.
11. "Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qushimcha chora – tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil, 20 iyun'.

12. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muxim omilidir» xalq so'zi 2010 yil 8 dekabr

13. I.Karimov. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Xalq so'zi 2012 yil 20 yanvar».

14. Karimov I.A. «Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar'.

15. X. Aybeshov., A. Abdullaev va boshq., Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish.darslik, «Fan va texnologiya» Toshkent 2005 y.

16. Belov A.A. "Metodika sostavleniya biznes plana". Moskva. Banki i birji. YUniti. 1995 god.

17. Vlasova V.N. "Osnovi predprinimatel'skoy deyatel'nosti". 1995 god.

18. G'ulomov. S.S. Menejment. O'quv qo'llanma. TDAU, 1998 yil.